

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMURODOV DILMUROD SOBIR O‘G‘LI

**FUNDAMENTALLASHTIRISH TAMOYILI ASOSIDA
TEXNOLOGIYA FANLARINI O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim), (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xolmurodov Dilmurod Sobir o‘g‘li

Fundamentallashtirish tamoyili asosida texnologiya fanlarini o‘qitish
metodikasini takomillashtirish..... 5

Холмуродов Дилмурод Собир оглы

Совершенствование методик преподавания технологических дисциплин
на основе принципа фундаментализации 23

Kholmurodov Dilmurod Sobir ugli

Improving the methodology of teaching technological subjects based on the
principle of fundamentalization 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMURODOV DILMUROD SOBIR O‘G‘LI

**FUNDAMENTALLASHTIRISH TAMOYILI ASOSIDA
TEXNOLOGIYA FANLARINI O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped 5235 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunov Kaxor Shonazarovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Ravshanov Hamroqul Amirqulovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yuldashev Sodiq Norchayevich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 217-xona.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

R.D. Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d.,
professor

I.B. Kamolov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.d. (DSc), professor

Sh.U. Nurullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, p.f.d.
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashtirish jarayonlari kontekstida mamlakatlar oldida muhim milliy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tizimlarni texnologiyalashtirishning dolzarb muammolarini hal etish zarurati paydo bo'ldi. Turli sohalarni texnologiyalashtirish ijtimoiy ishlab chiqarishni o'zgartirishning chuqur jarayonlari, zamonaviy ilmiy-texnikaviy inqilob va uning jahon iqtisodiyoti, transport, telekommunikatsiya tizimlarining rivojlanishiga real ta'siri bilan bog'laydiganlar eng samarali hisoblanadi. Jumladan, ijtimoiy texnologiyalarning global mohiyatini ochib berish, ularning shaxsga va zamonaviy jamiyatning fenomenologik manzarasiga ta'siri, yosh avlodni texnologik jarayonlarga tayyorlash muammosi ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Dunyoda amalga oshirilayotgan ta'limni modernizatsiyalashtirish jarayoni turli sohalarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Oliy ta'limni modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi bu uning ikkita muhim jarayonining o'zaro ta'siri – ta'limni fundamentallashtirish kelajakdagi mutaxassislarda nazariy va uslubiy bilimlarga asoslangan dunyoning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantirishga qaratilgan, atrofdagi dunyo jarayonlari va hodisalari o'rtasidagi chuqur, muhim kategorik asoslarni va aloqalarni tushunishga qaratilgan ta'lim, kasbiy faoliyatning kelajakdagi ko'nikmalarini shakllantirish innovatsion transformatsion faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "... mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish"¹ kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim va ta'lim jarayonlarini axborot-kommunikativ texnologiyalar asosida ta'limning zamonaviy sifatini uning fundamentalligini saqlash va shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF–5847-sonli farmonlarini hamda 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2909-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim

¹ PF–5847-сон 08.10.2019. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida

muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2021-yil 1-apreldagi "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5047-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida zamonaviy mutaxassislar tayyorlash, ularning umumtexnik va texnologik tayyorgarlikning umumnazariy va metodologik muammolari, kasb-hunarga yo'naltirish hamda texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy qiziqishlarini aniqlash kabi muammolar atroflicha tadqiq etilgan bo'lib, bu sohada A. Abduqodirov, A.I. Avazboyev, A.I. Vorobyov, K. Davlatov, R.G. Isyanov, I. Karimov, N.A. Muslimov, P.T. Mazgumov, U.N. Nishonaliyev, A.R. Xojaboyev, S. Yakubov, O.A. Qo'ysinov kabi olimlarimizning soha rivojiga katta hissa qo'shganlarini ta'kidlab o'tish joiz. Shu o'rinda kadrlar tayyorlash tizimini ixtisosliklar nuqtayi nazaridan mukammallashtirish S.Q. Qaxxorov, J.A. Hamidov, H.O. Jo'rayev, G. Ishmurodova va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosli ravishda ko'rsatib berilgan. Oliy ta'lim jarayonlarini zamon talabiga muvofiq amalga oshirish, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim sifatini oshirish hamda o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha R.D. Shodiyev, Sh. Nurullayeva, K.Sh. Tursunov, Sh. Turdiyev va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

Shu bilan birga fizikaviy materialshunoslik, materialshunoslik va konstruksion materiallar fanlarini texnika OTMlarida muhandislar tayyorlashda ahamiyati hamda o'qitish metodik tizimini yaratish sohasidagi V.A. Mirboboyev, E.O. Umarov, S.D. Nurmurodov, F.R. Norxo'djayev, U.A. Ziyamuhamedova, A. Matkarimov, F. Axmadjonova, A. Rasulov, K. Baxadirov va boshqalarning xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan texnika ixtisosliklari talabalariga texnikaga oid maxsus fanlarni o'qitish muammosi ustida A.A. Gladun, V.M. Aleksandrov, X.A. Klyasheva kabilar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi fanlarini o'qitish ustida L.V. Maslennikova, E.V. Maykov, S.F. Rodionov va boshqalar dissertatsion

tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ta'limni fundamentallashtirish masalalariga doir tadqiqotlar B.S. Kuznetsov, V.A. Kuznetsovalar tomonidan olib borilgan.

Xorijiy davlatlarda muhandislar tayyorlashga doir ta'lim tizimini mazmunini zamonaviylashtirish, texnologik kompetentlikni shakllantirish, uni jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga moslashtirish masalalari William D., Callister Jr., David G. Rethwisch va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari asosida ITD-1. A-1-173-raqamli "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi fundamentallashtirish tamoyili asosida texnologiya fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalar:

oliy ta'lim tizimida texnologiya fanlarini o'qitishga doir ilmiy manbalar va metodik ta'minotni tahlil qilish asosida o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

fundamentallashtirish tamoyili mazmuni va uni texnologiya fanlarini o'qitish jarayoniga tatbiqini tahlil qilish.

fundamentallashtirish tamoyili asosida texnologik ta'lim fanlarini o'qitish metodikasining takomillashtirilgan modelini ishlab chiqish.

texnologiya fanlarini fundamentallashtirish tamoyili asosida o'qitishning takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqish va pedagogik eksperiment davomida samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti fundamentallashtirish tamoyili asosida texnologiya fanlarini o'qitish jarayoni.

Tadqiqot predmetini texnologik ta'lim yo'nalishi fanlarini fundamentallashtirish tamoyili asosida o'qitish mazmuni, tuzilishi, usullari, shakl va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: nazariy-falsafiy, tabiiy-ilmiy, ilmiy-texnikaga oid, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish; tadqiqot natijalari va pedagogik tajribani tahlil hamda ekstrapolyatsiya qilish; pedagogik vaziyatlarni modellashtirish; eksperimental-kuzatish, pedagogik tajriba-sinovni o'tkazish, ekspert baholash va tekshirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalar texnologik faoliyatining mazmuni oliy ta'lim tizimida texnologik fanlarni o'qitishga doir ilmiy manbalar va metodik ta'minotni tahlil qilish asosida faoliyatning nazariy va amaliy texnologiyalashtirish yo'nalishlari kasbiy tanlov hamda strategiyani to'g'ri amalga oshirish, transformatsion faoliyatning optimal usullarini tanlash kabi komponentlarini raqamlashtirish muhitiga modifikatsiyalash asosida aniqlashtirilgan;

materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o'qitishdagi fundamentallashtirish tamoyilining innovatsion talqini texnologik fanlarni o'qitish jarayonini ilmiy-texnik nazariyaning "asos – yadro – yadro – talqin" modeli asosida transformatsiya qilish hamda oliy texnologik ta'limni

fundamentallashtirish konsepsiyasini tatbiq etish orqali asoslab berilgan;

texnologik ta'lim fanlarini o'qish jarayonining funksional modeli materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o'qitishning tayyorgarlik, ta'lim berish hamda nazorat bosqichlarida shaxsiy, kognitiv va faoliyat komponentlarini texnologik jarayonlar transformatsiyasiga tayyorlash metodikasini tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

texnologik ta'lim yo'nalishi mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi jamoa faoliyati orqali o'qitish texnologiyalari, individual ta'lim texnologiyalari va kouching strategiya usullarini fundamentallashtirish tamoyili asosida Materialshunoslik va konstruksion materiallari fanini o'qitishga doir integrativ dastur mazmuniga singdirish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalari asosida "Materialshunoslik" nomli darslik ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 500-557-sonli nashr guvohnomasi);

Texnologik ta'lim yo'nalishiga Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi fanini o'qitishni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish maqsadida "Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi" fanidan elektron darslik yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan berilgan DGU № 14074-raqamli guvohnoma).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadbiiq etilgan nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining texnologik ta'lim yo'nalishi fanlarini o'qitish jarayoniga tatbiq etilganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular texnologiya fanlarini o'qitish nazariyasi va metodikasi rivojlanishiga, xususan: materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini tabiiy-ilmiy, umumkasbiy hamda maxsus fanlar bilan birgalikda o'qitishning metodik tizimini qurish bilan bog'liq tizimli yondashuvni ishlab chiqishda; materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi fanini o'qitishning didaktik va alohida uslubiy tamoyillarini ishlab chiqishda (ilmiy xususiyat, fanlararo aloqadorlik, umumlashtirish va shu kabilarni); o'quv predmeti nazariyasi va ta'lim mazmunini ishlab chiqishdagi o'rni bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o'qitishning metodik tizimini yaratishda, talabalar uchun materialshunoslik va konstruksion materiallar fani yuzasidan o'quv-uslubiy majmuani, shu jumladan texnikumlar mutaxassisliklari bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va joriy etishdan iborat. Materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishga asosiy amaliy hissa qo'shish – o'quv qo'llanmalar, laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarga materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalari asosida:

talabalar texnologik faoliyatining mazmuni oliy ta‘lim tizimida texnologik fanlarni o‘qitishga doir ilmiy manbalar va metodik ta‘minotni tahlil qilish asosida faoliyatning nazariy va amaliy texnologiyalashtirish yo‘nalishlari kasbiy tanlov hamda strategiyani to‘g‘ri amalga oshirish, transformatsion faoliyatning optimal usullarini tanlash kabi komponentlarini raqamlashtirish muhitiga modifikatsiyalash asosida aniqlashtirilganligiga oid ma‘lumotlardan “Materialshunoslik” darsligini ishlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 500-557-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, texnologik ta‘lim yo‘nalishi talabalariga materialshunoslik fanini fundamentallashtirish tamoyili asosida o‘qitishning metodik ta‘minoti takomillashtirilishiga erishilgan;

materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o‘qitishdagi fundamentallashtirish tamoyilining innovatsion talqini texnologik fanlarni o‘qitish jarayonini ilmiy-texnik nazariyaning “asos – yadro – yadro – talqin” modeli asosida transformatsiya qilish hamda oliy texnologik ta‘limni fundamentallashtirish konsepsiyasini tatbiq etish orqali asoslab berilganligiga oid xulosalardan “Materialshunoslik” darsligini ishlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 500-557-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini modellashtirish imkoniyatlari oshirilishiga erishilgan;

texnologik ta‘lim fanlarini o‘qish jarayonining funksional modeli materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o‘qitishning tayyorgarlik, ta‘lim berish hamda nazorat bosqichlarida shaxsiy, kognitiv va faoliyat komponentlarini texnologik jarayonlar transformatsiyasiga tayyorlash metodikasini tatbiq etish asosida takomillashtirilganligiga oid ma‘lumotlar 60112300 – Texnologik ta‘lim yo‘nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, Fan va Innovatsiyalari Vazirligi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tomonidan 2025-yil 30-aprelda berilgan 02/01-01-154-sonli ma‘lumotnoma). Natijada, Texnologik ta‘lim yo‘nalishi fanlarini o‘qitish metodikasi innovatsion texnologiyalar bilan takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

texnologik ta‘lim yo‘nalishi mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi jamoa faoliyati orqali o‘qitish texnologiyalari, individual ta‘lim texnologiyalari va kouching strategiya usullarini fundamentallashtirish tamoyili asosida Materialshunoslik va konstruksion materiallari fanini o‘qitishga doir integrativ dastur mazmuniga singdirish orqali takomillashtirilganligiga oid tavsiyalar 60112300 – Texnologik ta‘lim yo‘nalishining malaka talabi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, Fan va Innovatsiyalari Vazirligi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tomonidan 2025-yil 30-aprelda berilgan 02/01-01-154-sonli ma‘lumotnoma). Natijada, texnologik ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha pedagoglarni tayyorlash jarayoni mazmunan innovatsion

texnologiyalar bilan boyitilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 161 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning "**Oliy ta'lim tizimida texnologiya fanlarini o'qitishning nazariy aspektlari**" deb nomlangan birinchi bobida texnologik fanlarni o'qitish muammolari bo'yicha tajribalar tahlili, texnologik ta'limni o'qitish metodikasining asosiy tamoyillari hamda texnologik fanlarni o'qitish bo'yicha talabalar tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar o'rganilgan.

Oldimizda turgan vazifalarga muvofiq "texnologik ta'lim yo'nalishida mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish muammosi bo'yicha olib borilayotgan ishlar majmuasidan uchta guruhni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq: texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning umumiy didaktik masalalariga bag'ishlangan vazifalar; umumtexnika fanlarini o'zlashtirishni takomillashtirishdagi vazifalar; Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasini o'zlashtirishni takomillashtirishdagi ishlar"².

Jumladan, ba'zi tadqiqot ishlarida texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning umumiy didaktik muammolari ko'rib chiqiladi, ularda yuqori malakali o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar tahlil qilinadi va ishlab chiqiladi, professiogrammalar taklif etiladi, mutaxassislarni yuqori sifatli tayyorlashga erishishning asosiy yo'llari ko'rsatilgan. Pedagogik tayyorgarlik jarayoni esa o'quv-tarbiyaviy jarayonining metodik muammolariga qaratilishi bilan uzviy bog'liqdir.

O'quv maqsadlari texnologik faoliyatning uch guruhi sifatida keltiriladi:

1-guruh. Rasmiylashtirish jarayonidagi faoliyat (matematik va mantiqiy operatsiyalarni o'rganish);

² Родионов, Сергей Федорович Методическая система обучения студентов технических вузов материаловедению и технологии конструкционных материалов: На примере подготовки инженеров железнодорожного транспорта: диссертация кандидата педагогических наук: <http://dlib.rsl.ru/rsl01002000000/rsl01002869000/rsl01002869410/rsl01002869410.pdf>

2-guruh. Rasmiylashtirilmaydigan jarayondagi faoliyat – matnlarni tushunish va takrorlash, qiyofalarni aniqlash, o‘zgartirish, analiz-sintez qilish, abstraksiya qilish va boshq;

3-guruh. Amaliy faoliyat – fanlar asoslarini va qo‘shimcha o‘quv predmetlari.

O‘quv materialining mazmunini tuzishga bunday yondashuv kursni ishlab chiqishda turli xil qiziqishlarni hisobga olishga imkon beradi: fundamental bilimlarni olish, to‘ldirish, tizimlashtirish, mutaxassislik muammolari bo‘yicha o‘z tushunchalarini baholash yoki muayyan bayonotlar foydasiga dalillar topish. Manbani kompozitsion loyihalashda o‘qitish holatining texnologiyasiga alohida e‘tibor qaratiladi: ma‘ruzalar matniga muammoli mulohazalarni kiritish, amaliy tavsiyalarga asosiy fundamental qoidalar haqida ma‘lumot berish, materialni mustahkamlash uchun test nazorati kiritiladi.

O‘qitish manbayini chizmalar, grafiklar, diagrammalar ko‘rinishida keltirilar ekan, ta‘lim beruvchi bilim va ulardan amaliy jarayonda qo‘llash imkoniyati hayotiy tashkil etishdagi jarayonlarga bog‘liqligini aniqlashi va tushunishi, voqelikning to‘liq, obyektiv tasvirini tashkil etishi va muayyan masalalarning sabablarini topib, ularni muvaffaqiyatli hal qila olishigiga bog‘liq ekanligidan kelib chiqadi.

Ta‘limda tizimli yondashuv, materialni o‘zlashtirish uchun amal qiladi, ammo o‘qitish dasturlarida ham, amaliyotda ham bajarilmaydi, chunki biz doimo ham aloqalarni ko‘rish va baholashga, ularning aniq to‘plamini topishga va hodisalar butunligini ko‘rib chiqishga odatlanmaganmiz. Bu tizimli tafakkur masalasi bo‘lib, bog‘lanishlar sxemalarda konkret va aniq, mezonlar bo‘yicha farqlangan holda ko‘rsatilsa va matnda bu bog‘lanishlarga izoh berilganda o‘quv jarayonida shakllanadi. Mutaxassisdan ko‘p darajada ijodiy va variativ fikrlash talab etiladi, bu nafaqat mavjud variantlarni takomillashtirish, balki tubdan yangilarini topish va tanlashdan iborat. Ma‘ruzalar, darsliklar muammoli rejada taqdim etilishi kerak. Bilim tayyor retseptlarda emas, balki mumkin bo‘lgan yondashuvlar, yechimlar, usullar va usullarni baholash shaklida xilma-xil bo‘lishi kerak.

Texnologiya o‘qituvchisining asosiy xususiyati – kasbiy muammolarni malakali va mas‘uliyat bilan hal qilish qobiliyati bilan aniqlanishi S.A. Tixomirov tomonidan ta‘kidlangan[67;68].

Materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o‘qitish holatini fundamentallashtirishga ko‘plab pedagogik izlanishlar bag‘ishlangan. Bunda integratsiyalashgan fanlar sifatida fizika, matematika, informatika kabi fanlar keltirib o‘tiladi. Umumiy ilmiy, tabiiy fanlar va dunyoning fizik tasavvuri o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tushunchasining yaratilgan kategorik apparati asosida fizikaning metodologik salohiyatidan mazkur maqsadlarda foydalanish orqali fanlararo aloqadorlik masalasini hal qilish mumkin

“Umumtexnika fanlarini o‘qitish jarayonlari asosida ko‘plab pedagogik tadqiqotlar tabiiy fanlarning fundamental mazmuniga asoslanadi, masalan, ilmiy fanlarning fanlararo uzviyligining konstruktiv vazifalarini, fizikani o‘qitish

jarayonida talabalarda texnologik faoliyatning”³ ba’zi turlarini shakllantirish g’oyasi nazarda tutilgan.

Tadqiqot muammosiga asoslangan holda manbalarni o’rganish mazkur xulosani chiqarishga imkon beradi:

bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini tayyorlash jarayonida fanlararo aloqalarni amalga oshirish yo’llari bo’yicha takliflar berilgan bir qator ishlar mavjud, ammo bu muammo ko’pincha mustaqil deb hisoblanadi. Tahlil qilinayotgan ishlarda mavjud bo’lgan tavsiyalar o’ziga xos xususiyatga ega (ular ma’ruzalar uchun yoki masalalarni yechish uchun yoki laboratoriya ishlari uchun mo’ljallangan).

Shunday qilib, agar materialshunoslikning zamonaviy yo’nalishiga (mikrotuzilmadan makroxususiyatlarga) (mikrotuzilmadan makroxususiyatlarga qadar) va texnologiyaga oid muammolarni hal etishga yo’naltirilganlik tamoyillarini amalga oshirishga yetarli darajada yordam bermaydi. Talabalarning ilmiy-texnik tafakkuriga sezilarli ta’sir ko’rsatishga imkon bermaydi. Shuning uchun materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasini o’qitish – texnologiya o’qituvchilarini tayyorlash sifatiga bog’liqligi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Texnologiya o’qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishning asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida Texnologik ta’lim ixtisosligi fanlarini boshqa bilim yurtlariga tashkillashtirish, ya’ni ilg’or ilmiy-texnikaviy ishlanmalar asosidagina yuqori malakali texnologiya o’qituvchilarini tayyorlash mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayonida ushbu talablarning bajarilishi o’qituvchilarning fundamental, gumanitar, umumtexnik va maxsus fanlar bo’yicha kompyuter, iqtisodiy, ekologik savodxonligini ta’minlashi zarur, bu esa o’z navbatida texnologiya o’qituvchining muammo va masalalarni hal qilish tayyorgarligini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

O’qitishning yuqori faolligi va intensivligi, texnologiya o’qituvchilarini tayyorlashda motivatsiya va raqobatbardoshlikni rivojlantirish talablari muayyan faoliyat turlariga qiziqish va qobiliyatlarni hisobga olgan holda talabalarni tabaqalashtirilgan holda o’qitish orqali qondiriladi. Bu esa boshqaruvchi pedagoglar, texnolog-o’qituvchilar va boshqalarni tayyorlashni nazarda tutadi.

Oliy ta’limda texnologik ta’lim ixtisosliklarini takomillashtirish yo’nalishlaridan biri fundamental tayyorgarlik va tor doiradagi ixtisosliklar bo’yicha mutaxassislar tayyorlash hisoblanadi. Umumilmiy sohalarining kasbga doir yo’nalishi – umumilmiy kafedralar ta’lim beruvchilari (bitiruvchilar bilan birga) fundamental sohalar nazariyasi qonunlari va qoidalariga asoslanishi maxsus ta’limga qo’yiladigan talablarni yaratishga bog’liq.

Bundan tashqari, fundamentallashtirish tamoyilining tatbiqi bo’lajak o’qituvchilarni pedagogik faoliyatning strategik maqsadlariga yo’naltirilgan holda kasbiy qarorlar qabul qilishga, mustaqil tahlil qilishga, rejalashtirishga va baholashga tayyorlaydi. Bu tamoyil orqali o’qituvchilar faqat bilim egasi emas, balki ta’limni boshqaruvchi, o’zgartiruvchi va innovatsiyalarni hayotga tatbiq qiluvchi mutaxassis sifatida shakllanadi.

³ Применение исследовательских методов в процессе лексической работы.pdf

Texnologik ta'limni o'qitish metodikasi pedagogik bilimlar sohasi sifatida maktab o'qituvchisi faoliyatida quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi:

Mehnat qilishga o'rgatishdagi (mehnat ta'limi) vazifalarini asoslash. Yosh avlodda o'zgaruvchan, samarali, ijodiy faoliyat mafkurasini shakllantirish.

O'quv materiali mazmun-mohiyatini asoslash. Umumiy ilmiy, tabiiy fanlar va dunyoning fizik tasavvuri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tushunchasining yaratilgan kategorik apparati asosida fizikaning metodologik salohiyatidan mazkur maqsadlarda foydalanish orqali fanlararo aloqadorlik masalasini hal qilish mumkin.

O'quv jarayonini tashkil etish. Bu yo'nalishda metodika yetakchi rol o'ynaydigan alohida soha bo'lib, u mohiyatan, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchilar faoliyatining aniq ajratilib ko'rsatilishidir.

Texnologik ta'lim darslarida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi:

O'quvchining o'qituvchi (yoki o'quvchi) bilan yakkama-yakka juftlik ishi.

Guruhli shakl, o'qituvchi bir vaqtning o'zida bir o'quvchilar guruhiga yoki sinfga dars beradi. Bu shakl o'quvchilar tomonidan o'quv topshiriqlarini alohida, mustaqil ravishda bajarish, keyin natijalarni nazorat qilish bilan tavsiflanadi. Bu shakl sinf bilan ishlash yoki frontal ish deb ham ataladi.

Jamoa (Kollektiv), bu o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning eng murakkab shakli hisoblanadi. Bu shakl barcha o'quvchilar faol bo'lganda va bir-birlariga o'rgatib o'rganishida mumkin. Kollektiv ish shaklining tipik namunasi o'quvchilarning o'zgaruvchan kompozitsiyadagi juftlikda ishlashidir.

Individual-izolyatsiya qilingan. Materialni mustahkamlashda biz ko'pincha o'quvchilarni juftlik bilan ishlashni tashkil qilamiz va amaliy ishlarni olib borishda, masalan, pazandachilik darslarida turli xil, katta kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilamiz.

Texnologik ta'lim o'qituvchisi uchun asosiysi, o'quvchilarda o'z-o'zini anglash va kelgusida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatda o'z taqdirini o'zi belgilashni texnologik ko'nikmalarni rivojlantirish hisoblanadi.

Texnologik ko'nikmalar – bu olingan texnologik bilimlar asosida shaxs tomonidan transformatsion faoliyat usullari yordamida o'zlashtirilgan ko'nikmalardir.

Texnologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish o'quv jarayonida transformativ faoliyatga asoslanadi. Bunga erishish uchun o'quv jarayonida texnologik ishlab chiqarish siklini qaytadan yaratish maqsadga muvofiqdir.

Fundamental va amaliy bilimlar orasidagi farq ta'limni fundamentallashtirishning mohiyatini aniqlashda asos qilib ishlatilishi mumkin.

Pedagogikadagi fundamentallashtirish tamoyili ta'lim jarayonida olinadigan bilimlarning real hayot, pedagogika nazariyasi va amaliyoti bilan bog'lanishiga asoslanadi.

Ta'limdagi fundamentallik olingan bilimlarning to'liqligi, chuqurligi va ilmiyligini, ong va o'z-o'zini anglashni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu tamoyilga ko'ra ta'lim mazmuni, o'quvchilar faoliyati iqtisodiyot, siyosat, madaniyat kabi ijtimoiy sharoitda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aks ettirishi kerak.

Ta'limdagi fundamentallik mustaqil ravishda tiklashga tayyorligini, ikkinchi tomondan, moddiy va mavjud bilimlardan ongli ravishda foydalanish va amaliy madaniyatni yaratishga tayyorligini nazarda tutadi.

Ta'lim mazmunini faollashtirishga qaratilgan ta'limni fundamentallashtirish tabiiy-ilmiy va gumanitar bilimlarni integratsiyalashuviga, o'quv jarayonini insonparvarlashtirishga, o'quvchi shaxsining ongi va o'zini o'zi anglash kabi qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'limni fundamentallashtirish, shuningdek, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish muammosini hal qilish, o'quv rejasining barcha fanlarini (shu jumladan, tabiiy-ilmiy fanlarni) o'rganish jarayonida o'quvchilar tomonidan insonparvarlik madaniyati qadriyatlarini shaxsiy darajada o'zlashtirish bilan bog'liq.

Texnologiya fanlarini o'qitishni **fundamentallashtirish tamoyili** quyidagi g'oyalarni o'z ichiga qamrab oladi: Oliy kasbiy ta'limni fundamentallashtirish konsepsiyasi; pedagogik ta'limning fundamentallashtirish g'oyasi; tizimli yondashuv g'oyasi; shaxsiy-faoliyat yondashuvi g'oyasi; topshiriq(vazifa)ga asoslangan yondashuvning nazariy asoslari; aqliy harakatlarning shakllanishi; mutaxassislar tayyorlashda kontekstli yondashuv; o'qituvchi shaxsini shakllantirishning konseptual yo'nalishlari; pedagogik jarayonni loyihalash g'oyalari.

Fundamentallik tamoyilini amalga oshirish uchun pedagogik muammolarni hal qilish muhim shart bo'lib, u mavhum nazariy mazmunni haqiqiy amaliy mohiyatiga aylantirish imkonini beradi.

Fundamental bilim nazariy tizimni tashkil etuvchi bilim va g'oyalardir.

“Materialshunoslik va konstruksion materiallar” fani – texnologik ta'lim yo'nalishining o'quv rejasida markaziy, asosiy va belgilovchi o'rin tutadigan fanlardan biridir. Bu fan, go'yoki o'quv rejasining markazida joylashgan bo'lib, u tabiiy-ilmiy fanlar (fizika, kimyo, matematika, kimyoviy texnologiyalar) bilan maxsus (kasbiy) fanlar (masalan, mashinasozlik, metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi, elektrotexnika, avtomatlashtirish va boshqalar) o'rtasida ilmiy-amaliy ko'prik vazifasini bajaradi.

Ushbu fanning o'rganilishi orqali talaba quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi: materiallarning tabiati va xossalari; materiallarni tanlash va qo'llash; chizma va injiniring grafikasi, mashina detallari, texnologik jarayonlar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Fundamentallashtirish tamoyili asosida texnologiya fanlarini o'qitishning takomillashtirilgan metodikasi”** deb nomlangan. Tadqiqotimiz davomida Oliy o'quv dargohlarida Materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o'qitishni muammosi tahlil qilingan, hamda texnologik ta'limda Materialshunoslik va konstruksion materiallar fanini o'qitish modeli ishlab chiqilgan.

Oliy kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalarining texnik fanlarni o'zlashtirish samaradorligi ko'p jihatdan o'qitish modellariga bog'liq.

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biri – ta'limda shunday metod, shakl va vositalarni tanlashdirki, ular orqali ta'lim oluvchi o'quv fanining ilmiy mohiyatini chuqur tushunishi, uni amaliyotda qo'llay olishni o'rganishi, mustaqil fikrlashi hamda real muammolarni hal qilishda ijodiy yondasha olishi ta'minlanadi.

Mazkur modelda “Materialshunoslik va konstruksion materiallar” fanini o‘qitishning umumiy metodik tizimidagi quyidagi komponentlari keltiriladi: OTM larida o‘qitishning metodik tizimining maqsadi; talabalarning fundamental va ilmiy-texnik bilimlari; texnologik masalalarini bartaraf qilishga yo‘naltirilgan kasbiy bilim va ko‘nikmalar; tabiiy-ilmiy fanlarning mazmuni va ilmiy-texnik nazariyalarni muhandislik masalalarini bartaraf qilishda qo‘llash; belgilangan maqsadga yetishish yo‘llari; asosiy yo‘l (ishlab chiqilgan qoidalar asosida maqsadga erishish usuli); maqsadga erishish yo‘lini belgilaydigan tamoyillar; fundamental o‘qitish tamoyili; treningni muhandislik muammolarini hal qilishga yo‘naltirilganlik tamoyili; ta‘lim shakllari; ma‘ruzalar; masalalarni yechish bo‘yicha praktikum; laboratoriya ishlari; ta‘lim shakllarini belgilaydigan vositalar; ma‘ruzalar uchun topshiriqlar tizimi; kurs ishlari uchun topshiriqlar tizimi; nazorat ishlari uchun topshiriqlar tizimi; OTMlarida o‘qiydigan talabalarning mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar tizimi; laboratoriya ishlari uchun topshiriqlar tizimi; muhandislik muammolarini hal qilishga qaratilgan masalalarni bartaraf qilish asosida topshiriqlar tizimi.

Materialshunoslik va konstruksion materiallar kursi bazalarining tarkibi va xususiyatlari, mashina detallarida ishlatilishi va ishlov berishda yangilanishi haqidagi fan asoslarini ko‘rsatadi. Mazkur kurs mazmuni quyidagilarni qamrab oladi:

Dalillar, tushunchalar, miqdorlar, asosiy qonunlar, ilmiy texnik nazariyalar

Bazalarni olish usullari va ularning xususiyatlari


Yangilash va ishlatishda texnik faoliyatlarni bajarishda mikrotuzilishlarida yangilanishlar natijasida bazalar xususiyatlarining o‘zgarishi

Bilim va ko‘nikmalarni amaliyotga tadbiq qilish

Aqliy va amaliy jarayonning o‘ziga xos qoidalari va yo‘llari

2-rasm. Materialshunoslik va konstruksion materiallar kursi mazmuni

Materialshunoslik va konstruksion materiallar kursini o‘qitish jarayonida bilimlarni jamlash tamoyili asosida manbani guruhlashda ilmiy substratni ilmiy-texnik nazariyalardan ajratish orqali bajarish lozim. O‘quv manbasining bunday tuzilmasi o‘zida o‘zgarmas va o‘zgaruvchan qismlari bilan ajralib turadi. “O‘zgarmas qism (tizimning tarkibiy qismi) “Materialshunoslik va konstruksion materiallar” faninini o‘rganadigan turli xil mutaxassislikdagi oliy



1-rasm. Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi fanini o'qitish metodik tizimining modeli

o‘quv yurtlarining barcha talabalari bilishi kerak bo‘lgan materiallarni o‘z ichiga oladi: empirik xususiyatli fundamental tajribalar; ilmiy-texnik nazariyalarning asosini tashkil etuvchi modellar, tushunchalar va miqdorlar; nazariyalarning to‘liq yadrosi – ilmiy-texnik nazariyalar, materiallardagi tarkibiy-tuzilmaviy o‘zgarishlarining ilmiy substrati; ba’zi muhim xulosalar va amaliy qo‘llash uchun tavsiyalar.

O‘zgaruvchan qism (tizimning tarkibiy qismi) – ixtisoslik bo‘yicha talabaning kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liq materiallarni o‘z ichiga oladi. Ushbu materialning mazmuni orqali mutaxassislik muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan o‘qitish tamoyili bilan ilmiy yondashuv amalga oshiriladi. Kurs mazmunining o‘zgaruvchan qismiga empirik asosning ba’zi bir elementlari va ilmiy-texnik nazariyalarning qo‘llanilishi kiradi.

Texnologik ta’limni o‘qitish usullarini bilim manbai bo‘yicha tasnifiga ko‘ra ular to‘rt guruhga bo‘linadi.

1-guruh. Og‘zaki muloqot va texnik-texnologik bilimlarni mustahkamlash usullari (Trening, og‘zaki bayon, amaliy ko‘rsatma).

2-guruh. Texnik obyekt, jarayon yoki hodisaning timsollari asosida o‘qitish metodlari

3-guruh. Amaliy harakatlar asosida BKM ni shakllantirish metodlari.

4-guruh: Faol ta’lim metodlari talabalar uchun olingan ma’lumotlarni o‘zlashtirishning eng muvaffaqiyatli usullaridir.

Fundamentallashtirish tamoyili asosida texnologiya fanlarini, jumladan, “Materialshunoslik va konstruksion materiallar” fanini o‘qitishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

“Topshiriqlar silsilasi” texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: talabalarga fanga doir topshiriqlar tizimini berish asosida fundamental bilimlarni shakllantirish.

Texnologiyani amalga oshirish bosqichlari:

Talabalar kichik guruhlarga ajratiladi.

Har bir guruhga o‘qituvchi mavzuga doir topshiriqlarni tizimli ravishda berib boradi.

Topshiriqlar o‘qituvchi tomonidan bosqichma-bosqich olinadi va mavzuga aloqador holda fizika, kimyo va boshqa mutaxassislik fanlari bilan bog‘liq holda berib boriladi.

O‘qituvchi talabalarga “Metall va eritmalarning kristalligi tuzilmasi” mavzusiga doir quyidagi topshiriqlarni bosqichma-bosqich berib boradi:

Har bir topshiriq natijasi boshqa guruh talabalari bilan birgalikda tahlil qilinadi va baholab boriladi.

“Dekart kvadrati” texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: turli materiallarning turli sohalarda foydalanilishiga doir ma’lumotlarni tizimlashtirish.

Texnologiyaning qo‘llanilishi:

Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi.

O‘qituvchi talabalar guruhlariga quyidagi chizma chizilgan qog‘ozlarni tarqatadi. Talabalarga o‘qituvchi turli materiallar va ularning analoglaridan foydalanishning ijobiy va salbiy oqibatlari haqida ma’lumotlarni qayd etish topshirig‘ini beradi.


Masalan, suvni saqlashda polimer idishlar yoki ularning analogi (masalan, yog‘och, metall, shisha kabi)dan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlaydilar.

